

RADIKALIZM JAMIYAT HAYOTIGA TAHID SIFATIDA

Shoymurodov Temurbek Sherzod o'g'li

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti sotsiologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi
temurbekshoymurodov2205@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada radikalizmning zamonaviy jamiyat hayotiga ko'rsatadigan ta'siri, uning kelib chiqish omillari va oqibatlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Mahalliy va xorijiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, shuningdek, sotsiologik va tahliliy usullar orqali radikalizmning siyosiy barqarorlikka, ijtimoiy birdamlikka, millatlararo totuvlikka va ma'naviy muhitga salbiy ta'siri aniqlanadi. Mavjud profilaktika tizimidagi kamchiliklar qayd etilib, radikalizmga qarshi kurashni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi. Maqola radikalizmning murakkab mohiyatini ochib berish hamda jamiyatni buzg'unchi g'oyalardan himoya qilishga qaratilgan kompleks yondashuv zarurligini yoritadi.*

Kalit so'zlar: *Radikalizm, ekstremizm, ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy tarmoqlar, profilaktika, media savodxonlik, radikallasuv.*

KIRISH

Radikalizm (lotincha radix – ildiz) – siyosiy tuzum va ijtimoiy institutlarni tubdan o'zgartirishga qaratilgan g'oya va harakatlarni ifodalovchi siyosiy, diniy oqim. Radikalizm umume'tirof etilgan an'analarga butunlay zid munosabatda bo'lib, keskin harakatlarni yoqlab chiqadi. Tarixda bu atama mo'tadil islohotlar tarafdorlariga nisbatan ham qo'llangan. Inson aql-zakovat va erkinlik ramzidir, shuning uchun uning erkini cheklash kerak emas. Hozirgi davr radikalizmga xos bo'lgan xususiyatlardan biri ijtimoiy hayotning ham nazariy, ham amaliy muammolarini hal qilishda zo'rlik usulidan foydalanishga moyillikdir. Tinch yo'l bilan hal qilish mumkin bo'lgan oddiy muammolarni yechishda ular kuch, zo'ravonlikdan foydalanishga intiladi¹³.

Hozirgi radikalizm ekstremizmning nazariy manbai bo'lib, ijtimoiy muammolarni hal qilishda zo'rlik usullari va vositalaridan foydalanmoqda. Sobiq sho'rolar tuzumi o'rnida tashkil topgan mustaqil davlatlar hududida rivojlanishning dastlabki bosqichida radikal oqimlar paydo bo'la boshladi. Bu oqimlar ba'zi mamlakatlarda fuqarolar urushini keltirib chiqardi. Uning ko'pchiligida siyosiy radikalizm diniy niqob ostida namoyon bo'ldi. Ular islom davlati qurish, xalifalikni qayta tiklash shiorlari bilan chiqib, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy rivojini to'xtatishga, bu jarayonni ortga – o'rta asrlarga qaytarishga intilayotgani o'ta xatarlidir. Aqidaparastlik ham radikalizmning bir ko'rinishi hisoblanadi. Radikalizmning mazmun-mohiyati radikalizmning boshqa ko'rinishlari kabi o'ziga mos

¹³ "Radikalizm". Rashidov Abrorxo'ja "Hidoya" o'rta maxsus islom bilim yurti xodimi. Hidoya.uz <https://share.google/jEb1iUPcf7daxzyX4>

kelmaydigan boshqa har qanday oqim va qarashlarga nisbatan muhosasizlikda, jamiyat taraqqiyotiga zid, g'ayriinsoniy g'oya va qarashlarni ilgari surishda namoyon bo'ladi.

Inson ajib mavjudot. Sababi uning dunyoqarashi mavjud. Ya'ni u dunyoni yaxlit tasavvur eta oladi. Hamda uning dunyoning ma'lum ma'naviy qonuniyatlar ustida qurilganini anglay oladi, amallar va narsalarni ma'naviy tarozisiga solib, "oq va qora", "yaxshi va yomon"ga ajrata biladi. Garchi ma'naviy olamni ko'z bilan ko'rib bo'lmasa-da, inson uning nizomlarini his qila oladi. Xo'sh, Yer sayyorasida yaxshi va yomonni ajrata oladigan mavjudot hukmron ekan, qayerdan buncha mudhish, hech bir taroziga sig'maydigan ishlar? Nega aql egasi bo'lmish zotning ishlaridan buncha salbiy oqibatlar? Insonlarning qarashlari turlicha bo'ladi, hatto bitta qarashning ichida ham turlanish bo'ladi, va hatto bitta oila a'zolari ichida turlicha qarashdagi kishilar bo'lishi mumkin, zero insonlar bir xil emas.¹⁴

Masalan, kishining o'z Millati va Vatani uchun qayg'urishi, uning rivoji va ozodligini istashi bu yaxshi, har bir insonga bezak bo'la oluvchi tuyg'u. Biroq bunday intilish qizig'ida inson ma'naviy me'yorlarni chekkaga surib qo'yadigan bo'lsa, bunda u o'sha doiradan chiqib ketgan bo'ladi – radikallashtirish asnosida ekstremizm va boshqa – jiddiy illatlarga duchor bo'ladi. Vatanga yaxshilikni istash istagi soyada qolib ketadi va boshqa – salbiy tuyg'ular qorishmasi ustun keladi. Qarabsizki, kishi Vatanning rivoji uchun emas, aksincha zarariga xizmat qila boshlaydi. Radikal tuyg'ular kishini keskin amallarga yetaklaydi: radikal, ekstremistik gaplarni aytishiga, yozishiga va keskin harakatlarni qilishiga olib keladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar: Xalqaro adabiyotlarda esa radikalizmning psixologik, ijtimoiy, siyosiy va kommunikativ omillari alohida o'rganilgan. Bruce Hoffman radikalizm va terrorizmni zamonaviy shakllanish dinamikasi doirasida tadqiq etgan. Uning "Inside Terrorism" asarida terrorizmning evolyutsion nazariyasi bayon qilinadi. Hoffman fikricha, radikalizm irratsional zo'ravonlik emas, balki siyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan izchil strategiyadir. U terrorchilik faoliyatini qat'iy ideologiyaga emas, balki holatga moslashuvchi taktik jarayon sifatida talqin qiladi.¹⁵

Martha Crenshaw terrorizmning sabablarini tushuntirib beruvchi "strategik tanlov nazariyasi"ni ishlab chiqqan. Uning ta'kidlashicha, radikal guruhlar zo'ravonlikni hissiy yoki diniy ekstremizm tufayli emas, balki rasonallik va foyda-zarar hisobiga asoslangan qarorlar orqali tanlaydi. Crenshaw nazariyasiga ko'ra, radikal harakatlar siyosiy imkoniyatlar, hukumatning pozitsiyasi va resurslarning mavjudligiga qarab shakllanadi.¹⁶

Diniy tomondan olib qaralganda Mark Juergensmeyer "diniy zo'ravonlik" konsepsiyasini ilgari surgan bo'lib, radikalizmning ma'naviy-mafkuraviy ildizlarini chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, diniy asosdagi radikal guruhlar o'z harakatlarini "kosmik jang", "axloqiy kurash" sifatida talqin qiladi va zo'ravonlikni ilohiy vazifa deb biladi. U bunday harakatlarni faqat siyosiy emas, balki ramziy-ma'naviy fenomen sifatida tushuntiradi¹⁷. Olivier Roy esa radikallashtirishning zamonaviy shaklini "Islomning radikallashtirishi emas, balki

¹⁴ Hidoya.uz <https://share.google/jEb1iUPcf7daxzyX4> "Radikalizm". Rashidov Abrorxo'ja "Hidoya"

¹⁵ Hoffman, B. (2006). Inside Terrorism. Columbia University Press.

¹⁶ Crenshaw, M. (1981). The causes of terrorism. Comparative Politics, 13(4), 379–399.

¹⁷ Juergensmeyer, M. (2003). Terror in the Mind of God: The Global Rise of Religious Violence. University of California Press.

radikallikning islomlashuvi” deb talqin qiladi. Unga ko’ra, yangi avlod radikalari mafkuraga chuqur ishonch bilan emas, balki identitet inqirozi, ijtimoiy ajralish va shaxsiy inqirozlar orqali ekstremistik yo’lga kiradi. Roy radikalizmni global modernizatsiya jarayonining yon mahsuloti sifatida ko’rsatadi.¹⁸ Gilles Kepel esa radikalizmni siyosiy islom evolyutsiyasi doirasida sharhlab, uni uch bosqichli tarixiy jarayon sifatida talqin qiladi. Unga ko’ra, radikallashuv “da’vat”, “siyosiy faollik” va “zo’ravon jihad” bosqichlari orqali kechadi. Kepel nazariyasida radikalizmning ildizi ko’proq siyosiy repressiya, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy parokandaligi va mafkuraviy targ’ibot bilan bog’lanadi [5].

David Rapoport o’zining “To’rt to’lqin nazariyasi” bilan zamonaviy terrorizmni rivojlanish bosqichlari orqali izohlaydi. Uning modeliga ko’ra, radikalizm diniy, anarxistik, milliy-ozodlik va yangi ommaviy axborot vositalari bilan kuchaygan “yangi jihadchi to’lqin” shaklida takrorlanuvchi tarixiy jarayon sifatida namoyon bo’ladi.¹⁹

UNESCO tadqiqotlari esa radikalizmning oldini olishda ta’lim va media savodxonlikni oshirish eng samarali vosita ekanini ko’rsatadi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda radikalizmning jamiyatga ta’siri keng o’rganilgan bo’lib, ijtimoiy barqarorlikning buzilishi, millatlararo totuvlikning susayishi, oilaviy muhitga salbiy ta’sir ko’rsatishi kabi omillar asosiy tahdid sifatida ko’riladi. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko’rsatdiki, ko’plab tadqiqotlarda radikalizm sabablari va oqibatlari qamrab olingan bo’lsa-da, yoshlar ongida radikal qarashlarning shakllanish mexanizmlari bo’yicha mahalliy darajadagi izlanishlar hali yetarli emas. Bu esa mazkur mavzuning o’rganilishini dolzarb qilib qo’yadi.

Ushbu maqolada radikalizmning jamiyat hayotiga ta’sirini o’rganish uchun bir nechta ilmiy usullardan foydalanildi. Avvalo, mavjud ilmiy manbalarni o’rganish va tahlil qilishga asoslangan ilmiy-adabiy tahlil usuli qo’llanildi. Bu usul radikalizm bo’yicha mahalliy va xalqaro olimlarning qarashlarini taqqoslash, mavjud nazariy konsepsiyalarni tizimlashtirishga imkon berdi. Shuningdek, radikallashuvning omillarini aniqlashda tahliliy-metodologik yondashuv, radikalizmning ijtimoiy oqibatlarini baholashda esa ijtimoiy-sotsiologik tahlil usullaridan foydalanildi. Internet va OAVning radikal g’oyalarni tarqatishdagi o’rnini o’rganishda kontent tahlili usuli samarali bo’ldi. Mazkur metodlar radikalizm sabablari, uning jamiyat hayotiga ko’rsatadigan tahdidlari va unga qarshi kurash tizimining samaradorligini har tomonlama chuqur o’rganish imkonini berdi²⁰.

Muhokama va natijalar. Radikalizm zamonaviy jamiyatning eng murakkab ijtimoiy-siyosiy muammolaridan biridir. Olib borilgan ilmiy izlanishlar va real hayotdagi kuzatuvlar radikal kayfiyatlarning shakllanishi ko’p omilli jarayon ekanini tasdiqlaydi. Xususan, yoshlarning radikal guruhlar ta’siriga tez berilayotgani mafkuraviy bo’shliq, axborot xurujlari va psixologik beqarorlik bilan bevosita bog’liq. Adabiyotlarda ko’rsatilganidek, ko’plab tadqiqotchilar radikalizmning ildizini iqtisodiy tengsizlik va ijtimoiy adolatsizlikda ko’rishadi. Biroq maqola davomida olingan tahlillar shuni ko’rsatadiki, zamonaviy sharoitda

¹⁸ Roy, O. (2004). Globalized Islam: The Search for a New Ummah. Columbia University Press.

¹⁹ Kepel, G. (2002). Jihad: The Trail of Political Islam. Harvard University Press.

²⁰ “Deradikalizatsiya: ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida.” Ergashev Otabek. Tamaddun Nuri jurnali <https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tnj/issue/view/25>

radikalizmning asosiy tarqalish kanallari internet, ijtimoiy tarmoqlar va virtual kommunikatsiya platformalaridir. Bu esa radikal g'oyalar yoshlar ongiga tez kirib borishini ta'minlaydi. Shuningdek, radikalizmning diniy niqob ostida tarqatilayotgani, turli guruhlar tomonidan diniy g'oyalar siyosiy maqsadlarda ishlatilayotgani aniqlangan. Ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yetarli darajada tashkil etilmasligi, oilalarda nazoratning sustligi, yoshlar bandligining pastligi bu jarayonni yanada kuchaytiradi.

Mavjud vaziyatni tahlil qilish natijasida quyidagi muammolar aniqlandi:

- radikalizmga qarshi profilaktika ishlari tizimli emas;
- internet makonidagi zararli kontent ustidan nazorat sust;
- yoshlar bilan psixologik ishlash mexanizmlari yetarli rivojlanmagan;
- diniy savodsizlik radikal g'oyalarga tez berilishga sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagi muammolardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari surildi: birinchidan, ta'lim tizimida axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi dasturlarni kuchaytirish; ikkinchidan, yoshlar uchun sog'lom g'oyalarni targ'ib qiluvchi innovatsion platformalar yaratish; uchinchidan, diniy-ma'rifiy ta'limni sifat jihatdan yaxshilash; to'rtinchidan, internet xavfsizligi bo'yicha davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, radikalizmga qarshi kurash faqat huquqiy choralar bilan emas, balki keng ko'lamli ma'naviy, ijtimoiy va psixologik strategiyalar bilan olib borilgandagina samarali natija beradi.

Radikalizmning yoshlar orasida tarqalish sur'ati ortib borayotgani aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, radikal g'oyalarning aksariyati ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalmoqda va ayniqsa 16–30 yoshdagi toifa ularga ko'proq moyillik namoyon qilmoqda. Ilmiy izlanishlar davomida radikal kayfiyatlarning kuchayishiga quyidagi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani aniqlangan: iqtisodiy beqarorlik, ijtimoiy adolatsizlik hissi, diniy savodsizlik, ishsizlik, ma'naviy bo'shliq, oilaviy nazoratning sustligi hamda internetdagi ekstremistik materiallar.

Radikalizm siyosiy barqarorlikni izdan chiqarishi, ijtimoiy birdamlikni susaytirishi, millatlararo munosabatlarga putur yetkazishi, yoshlarning ma'naviy-ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda oilaviy munosabatlarning barqarorligiga xavf tug'dirishi aniqlandi. Aksariyat yoshlar radikal axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasiga ega emas.²¹ Media savodxonlik va diniy-ma'rifiy bilimlarning yetishmasligi radikallasuv xavfini kuchaytirmoqda. Mavjud ma'rifiy faoliyatlarning ayrimlari muntazam va tizimli emasligi, ta'lim muassasalari, mahalla tizimi va OAV o'rtasidagi hamkorlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani asosiy kamchilik sifatida qayd etildi. Yoshlar bilan ishlash mexanizmlarini takomillashtirish, media savodxonlikni oshirish, radikal axborotlarga qarshi tezkor va samarali kommunikatsiya tizimini yaratish hamda diniy-ma'rifiy ta'limni kuchaytirish zarurligi ko'rsatilib o'tildi.

Xulosa: Yig'ilgan ilmiy manbalar, tahliliy kuzatuvlar va o'tkazilgan tadqiqotlar radikalizmning zamonaviy jamiyat uchun eng jiddiy ijtimoiy xavflardan biri ekanini yaqqol ko'rsatmoqda. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, radikalizmning ildizlari faqat diniy yoki

²¹ Rapoport, D. C. (2004). The four waves of modern terrorism. In A. Cronin & J. Ludes (Eds.), *Attacking Terrorism* (pp. 46–73). Georgetown University Press.

mafkuraviy omillargagina bog'liq emas, balki iqtisodiy beqarorlik, ijtimoiy adolatsizlik, ta'limdagi bo'shliqlar, internet muhitidagi nazoratsiz kontent kabi omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Radikalizmning, ayniqsa, yoshlar orasida tez tarqalishi, ularning ongida tanqidiy fikrlash ko'nikmasining yetishmasligi, media savodxonlikning pastligi va ma'naviy bo'shliqning mavjudligi ushbu muammoning dolzarbligini yanada kuchaytirayotgani aniqlandi. Natijalar radikalizmning siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik, oilaviy munosabatlar va jamiyatning ma'naviy muhitiga jiddiy tahdid ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, mavjud profilaktika tizimi yetarli darajada samarali emasligi, ma'rifiy ishlarning muntazamligi va tizimliliigi yetishmayotgani, davlat idoralari, ta'lim muassasalari va OAV o'rtasida hamkorlikning sustligi aniqlangan muhim muammolardan biridir. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, radikalizmga qarshi kurashda faqat jazolash yoki taqiqlash mexanizmlariga tayanish samara bermaydi. Eng asosiy natija shuki, radikalizmga qarshi kurashning poydevori yoshlar ongida sog'lom, tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, diniy va dunyoviy bilimlarni to'g'ri berish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish, internet makonida xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, jamiyatda adolat va ishonch muhitini mustahkamlashdan iborat. Umuman olganda, radikalizmga qarshi kurash kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi. Bu borada davlat muassasalari, ta'lim tizimi, mahalla, OAV va butun jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat shundagina jamiyatda barqarorlikni ta'minlash, yoshlarni turli buzg'unchi g'oyalardan himoya qilish va ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlash imkoniyati yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Chuang, Yao-Li; D'Orsogna, Maria R. "Mathematical Models of Radicalization and Terrorism"
2. Crenshaw, M. (1981). The causes of terrorism. *Comparative Politics*, 13(4), 379–399.
3. Ergashev, O. Deradikalizatsiya: ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida. *Tamaddun Nuri jurnali*. <https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tnj/issue/view/25>
4. Hoffman, B. (2006). *Inside terrorism*. Columbia University Press.
5. Juergensmeyer, M. (2003). *Terror in the mind of God: The global rise of religious violence*. University of California Press.
6. Kepel, G. (2002). *Jihad: The trail of political Islam*. Harvard University Press.
7. Nouh, Mariam; Nurse, Jason R. C.; Goldsmith, Michael. "Understanding the Radical Mind: Identifying Signals to Detect Extremist Content on Twitter."
8. Rapoport, D. C. (2004). The four waves of modern terrorism. In A. Cronin & J. Ludes (Eds.), *Attacking terrorism* (pp. 46–73). Georgetown University Press.
9. Rashidov, A. (yil ko'rsatilmagan). *Radikalizm*. Hidoya.uz. <https://share.google/jEb1iUPcf7daxzyX4>
10. Roy, O. (2004). *Globalized Islam: The search for a new ummah*. Columbia University Press.
11. Kukaldosh o'rta maxsus islom bilim yurti rasmiy sayti. (yil ko'rsatilmagan). <https://www.kukaldosh.uz>